

O'ZBEKISTONDA BOJXONA TIZIMI HUQUQIY ASOSLARINING MUSTAHKAMLANISHI

Olimjonova Gulida Olimjon qizi

Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15332480>

Jamiyatda mavjud har bir sohaning o'z tarixi bor. Xususan, jahon bojxona sohasi ham uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Qadimgi davlatlarning paydo bo'lish davrida, bir hududdan ikkinchi davlat hududiga o'tish jarayonida boj o'ndirish ham yuzaga kelgan¹. Ya'ni qabilalar va davlatlar o'rtasidagi tovar aylanishida boj to'lanishi talab etilgan. Boj atamasi turkiy tillardagi "tamg'a" so'zidan olingan bo'lib, O'rta Osiyoning ko'chmanchi xalqlari orasida odatda mulk belgisi sifatida turli buyumlarga qo'yiladigan belgi ma'nosini bildiradi². Ko'pincha qabilalar o'z mollariga tamg'a qo'yganlar va shu belgi bilan bir biridan ajratganlar.

Jahon tarixida xalqlarning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy hayotida muhim o'rin tutgan La'l, Tuz, Shoh, Oltin, Nefrit va boshqa bir necha savdo yo'llari mavjud bo'lgan. Ular ichida eng mashhuri Buyuk Ipak yo'li hisoblanadi. Dastlab Xitoy hududidan boshlanib, G'arbga tomon 12 ming kilometr ga cho'zilgan Sharq bilan G'arbn tutashtirgan bu savdo yo'li ulug' ajdodlarimiz sa'y-harakatlari bilan umumbashariyat taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan, xususan, bu yo'lning Vatanimiz sarhadlaridan o'tganligi uning tarixida, iqtisodiy-madaniy yuksalishida hamda xorijiy xalqlar bilan izchil hamkorlik va hamjihatlikda bo'lishida katta ijobiy o'rin egallaydi³.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilib, yangilash jarayoni davom ettirildi. Xususan, bojxona sohasida ham bu kabi o'zgarishlar qilinib, tizimning huquqiy bazasi mustahkamlandi. Davlat bojxona postlari zamonaviy texnik vositalar va texnologiyalar bilan ta'minlandi. Ammo, bu darajaga erishish uchun qanday og'ir davrlar boshdan kechirilganligi va qanday qiyinchiliklar yengib o'tilganligini faqat tarix satrlarini varaqlagandagina chuqur anglab yetish mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mintaqadagi murakkab vaziyatdan kelib chiqilsa, O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosatida o'ziga xos o'rinni egallaganligini anglash mumkin. XX asrning 90-yillarida endigina mustaqil bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlarining barchasining oldida izdan chiqqan ijtimoiy-iqtisodiy sohani yo'lga qo'yish, davlat xavfsizligi va chegarani mustahkamlash kabi jiddiy bir muammolar turdi. Ayniqsa, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muhim bo'lib, bu davrda mintaqada oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligi kuchli edi. Bu esa o'z o'rnida u yoki bu turdagi mahsulotlarni qo'shni davlatlardan tashish ehtiyojini kuchaytirdi. Bunday sharoitda bojxona tizimi zimmasiga qo'shimcha murakkab vazifalar kelib tushishi tabiiy hol bo'ldi. Endigina mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatlarning hududiy chegaralarining ochiqligi va nazoratsizligi noqonuniy tovar aylanishiga keng yo'l ochdi⁴. Bu davrda davlat chegaralarini noqonuniy kesib o'tish bilan bog'liq jinoyatlar ko'payib bordi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq Respublika

¹ Андреева О.М. История таможенного дела и таможенной политики России. – Челябинск Издательский центр ЮУрГУ, 2021. – С.8 -12.

² Марков Л. Н. Очерки по истории таможенной службы. – Иркутск: Изд-во Иркут. ун-та, 1987. – С. 31. – 156 с

³ Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар // Аблат Хўжаев. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б.6.

⁴ Davlat bojxona qo'mitasi joriy arxivi ma'lumoti.

rahbariyati tomonidan chegaralarni mustahkamlash va bojxona ishini yo'lga qo'yishga katta e'tibor qaratildi. 1991-yil sentabr oyida Ichki ishlar vazirligi huzurida "O'zbekiston Respublikasi hududidan tovar-moddiy boyliklarning noqonuniy olib chiqib ketilishining oldini olish bo'yicha Inspeksiya" tashkil etildi⁵. Mazkur inspeksiya ham bojxonaga taalluqli qator vazifalarni bajarib keldi. Xususan, mamlakatdan xorijga olib ketiladigan yuklarning qonuniyligini aniqlash ishiga jiddiy e'tibor qaratildi. Asta-sekinlik bilan davlat chegarasidan o'tish joylarida postlar tashkil etilib, ularni zarur radioelektronika va aloqa vositalari, binolar bilan ta'minlash choralari sekinlik bilan bo'lsa-da, amalga oshirila boshlandi. Respublikaning chegaradosh joylarida qo'nalg'alar, aeroportlarda, shoxbekatlarda, temir yo'l stansiyalarida nazorat postlari ochildi⁶. Eng qiyini bu davrda mamlakatda chegara qo'shinlari ham mavjud emas edi.

Nihoyat 1991-yil 25-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Farmoni bilan Bojxona qo'mitasi tuzildi. Qo'mitaning shtatlar birligi 415 nafar etib belgilandi⁷. Vazirlar Mahkamasining "Respublika bojxona xizmatini tashkil etish va uning faoliyati masalalari haqida"gi 272-son qaroriga muvofiq Bojxona qo'mitasining tuzilmasi shakllantirildi⁸. Demak, hukumat tomonidan Respublikada bojxona xizmatini yo'lga qo'yish yo'lidagi harakati mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qildi⁹. Bojxona qo'mitasi faoliyatini yo'lga qo'yishda, avvalo, jahonda bu boradagi tajriba va amaliyot hamda standartlarga amal qilindi. Bu davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi. Bojxona sohasiga doir Prezident Farmoni va hukumat qarorlaridan kelib chiqib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz va Farg'ona hududiy bojxona muassasalari va ularga buysunuvchi 40 ta bojxona postlari ochildi. Ushbu nazorat postlar zimmasiga davlat chegaralaridan olib o'tilayotgan har bir tovarlarni qat'iy nazoratdan o'tkazish vazifasi yuklandi.

O'zbekiston bevosita mamlakat hududida bojxona tizimini yo'lga qo'yish bilan birga, bu boradagi xalqaro huquqiy normalarni o'rganish va ularga a'zo bo'lish harakatlarini olib bordi. Masalan, 1992-yil 8-iyulda O'zbekiston Respublikasi "Bojxona hamkorligi kengashini ta'sis etish to'g'risida"gi xalqaro Konvensiyaga, shu yilning 28-iyulda esa Jahon bojxona tashkilotiga a'zo bo'ldi.

Mustaqillikning ilk davrida O'zbekiston hukumati oldida bojxona tizimi normativ-huquqiy bazasini mustahkamlash, bojxona qonunchiligiga doir loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, kadrlar masalasini hal etish, moddiy-texnika ta'minotini kuchaytirish, chegara postlarini bino va zarur texnika vositalari bilan ta'minlash kabi vazifalarni bajarish kundalang turdi. O'zbekiston bojxona tizimi huquqiy bazasini kuchaytirish maqsadida 1992-yil 10-avgustda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi bilan Ichki ishlar vazirligi huzuridagi "O'zbekiston Respublikasi hududidan tovar-moddiy boyliklarning noqonuniy olib chiqib ketilishini oldini olish bo'yicha Inspeksiya"si birlashtirilib, "Davlat bojxona qo'mitasi boshqarmalari"ni tashkil qilish haqidagi Farmoni

⁵ Камилов У. Т., Алимбаев С. А. Божхона қонун ҳужжатларидаги янгиликлар. 1-қисм. – Т., 1998. – Б.21.

⁶ Davlat bojxona qo'mitasi joriy arxivi ma'lumoti.

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1991 йил 25 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси Божхона Комитетини ташкил этиш тўғрисида" ПФ-284-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/227742>

⁸ Камилов У.Т., Алимбаев С.А. Божхона қонун ҳужжатларидаги янгиликлар. 1-қисм. – Т., 1998. –Б.26.

⁹ Ўзбекистон божхона хизмати. – Тошкент, 2005.–Б.62.

bojxona xizmatini yanada mustahkamlashda muhim hujjat bo'ldi¹⁰.

Asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, bojxona tizimini yo'lga qo'yish va rivojlantirish maqsadida e'lon qilingan farmon va qarorlar soni ko'payib bordi. Masalan, 1993-yil 1-martda O'zRVMsining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatining ba'zi masalalari to'g'risida"gi e'lon qilingan qaroriga muvofiq "Bojxona sohasi shaxsiy tarkibi uchun maxsus unvonlar berish to'g'risida"gi vaqtinchalik Nizom ham tasdiqlandi¹¹. Bojxona qo'mitasining vakolat doirasi ham kengayib bordi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-mayda e'lon qilingan "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonun hujjatiga muvofiq bojxona organlariga ham valyutani tartibga solishni ta'minlash vazifasi topshirildi.

1993-yil 7-oktabrda O'zRVMsining farmoyishiga asosan 1994-yil 1-yanvardan boshlab Respublikaga olib kiriladigan va olib chiqiladigan barcha turdagi tovar va transport vositalari majburiy deklaratsiyalanishi tartibi joriy etildi¹².

1994-yil 18-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan Davlat bojxona qo'mitasi Bosh bojxona boshqarmasiga aylantirilib, Davlat soliq qo'mitasi tarkibiga kiritildi. Shu bilan birga soha kadrlarini tayyorlash masalalariga ham e'tibor qaratila boshlandi. 1994-yil sentabr oyidan DSQ Bosh bojxona boshqarmasi O'quv markazida bojxona organlariga qabul qilingan xodimlar uchun 1 oylik boshlang'ich tayyorgarlik kurslari ochildi¹³.

Shu tariqa bojxona tizimi davlat va hukumatning eng muhim strukturalaridan biriga aylanib, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi roli ortib bordi. Birgina 1993-yili Respublika Davlat bojxona qo'mitasiga Vazirlar Mahkamasining 43 ta qarori va 20 ta farmoyishi kelib tushgan. Hukumatning 6 ta qarori ijrosini ta'minlash maqsadida qo'mitaga va tarkibiy bo'linmalariga ularning faoliyatini tashkil etish bo'yicha tegishli topshiriqlar berilgan. Mazkur hujjatlar ijrosi yuzasidan 23 ta qaror ijroga qabul qilinib, ular faoliyatiga rahbarlik qilish uchun hududiy boshqarmalar va boshqa bo'linmalarga yetkazilgan¹⁴.

1993-yilda Bojxona qo'mitasining Surxondaryo, Sirdaryo, Navoiy va Farg'ona viloyatlari bo'yicha boshqarmalari faoliyatida kompleks tekshirishlar o'tkazilib, ularning uchasi bo'yicha natijalari hay'at yig'ilishlarida ko'rib chiqilib, ushbu masala yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi. Shu davr mobaynida barcha hududiy boshqarmalarda ham hukumat qarorlari ijrosi, ijro intizomi va qonuniyligi holatini o'rganish, kadrlar bilan ishlash bo'yicha 6 ta maqsadli tekshiruvlar o'tkazilib, natijalari Davlat bojxona qo'mitasi raisi huzuridagi tezkor yig'ilishlarda muhokama qilindi¹⁵. Davlat bojxona qo'mitasi apparatida ham yuqori tashkilotlarning topshiriqlarini o'z vaqtida bajarmaslik holatlari uchrab turdi. Chunonchi, kelib tushgan 63 ta hukumat qaroridan 10 tasi belgilangan muddat buzilgan yoki to'liq bajarilmagan holda amalga oshirilgan¹⁶.

¹⁰ Davlat bojxona qo'mitasi joriy arxivi ma'lumoti.

¹¹ <https://lex.uz/docs/619554>

¹² Davlat bojxona qo'mitasi joriy arxivi ma'lumoti.

¹³ Камилов У.Т., Алимбаев С.А. Божхона қонун ҳужжатларидаги янгиликлар. 1-қисм. – Т., 1998.–Б. 29.

¹⁴ O'z MA, M-76-fond, 1-ro'yxat, 365-ish, 15-varaq.

¹⁵ O'z MA, M-76-fond, 1-ro'yxat, 217-ish, 74-varaq.

¹⁶ Davlat Bojxona qo'mitasining joriy arxivi, 1993 yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot papkasi ma'lumoti, 23-varaq.